



ISSN 2181-1903

PAXTACHILIK VA DONCHILIK
ilmiy-amaliy jurnal

ХЛОПКОВОДСТВО И ЗЕРНОВОДСТВО
научно-практический журнал

COTTON AND GRAIN GROWING
scientific and practical journal

№4 - сон (13) 2023

МУНДАРИЖА

Селекция ва уруғчилик

Ачилов С.Г., Амантурдиев А.Б. F_4B_1 беккросс ғўза дурагайларидан ажратиб олинган оилаларда айрим қимматли хўжалик белгилари ва тола сифат кўрсаткичларининг шаклланиши 12
Xalikova M.B., Raxmonova R.B., Matyakubova E.U. *G.hirsutum L.* turi duragaylarida tola rangi belgisining shakllanishi 18
Амантурдиев Ш.Б., Сидик-Ходжаев Р.Т., Сабиров А.Ғ. Беданинг янги Тошкент-3091 нави 22
Мирахмедов М.С. Ғўзанинг айрим қимматли хўжалик белгиларига мутант IN^1 генининг таъсири 27
Ғуломов Ғ.Ш. Мураккаб дурагай шаклларининг чигити таркибидаги умумий госсипол миқдорини HPLC усули ёрдамида аниқлаш 35
Рахмонқулов С.-А., Мурадуллаев А.М., Жалолов Х.Х. Ғўзанинг районлашган ва истиқболли навларининг чигит мойдорлиги 41
Таджибаев Б.М., Ахмедов Д.Х., Жабборов Ж.С., Ўрозов Б.О. Мутагенез услубида олинган мутант ўсимликларда кўсак вазни белгисининг ўзгарувчанлиги 45
Бобоев С.Ғ., Тошпулатова Г.К. Ғўзанинг туричи ва турлараро дурагайларида тезпишарлик ва тола узунлиги белгиларининг ўзгарувчанлиги 50
Бобоев С.Ғ., Тошпулатова Г.К., Мухаммадиева Ш.Н. Турлараро мураккаб ғўза дурагайларининг вилт касаллигига бардошлилиги 56

Умумий деҳқончилик. Пахтачилик

Халиков Б.М., Негматова С.Т., Бозоров Х.М., Махмудов Ў.Ҳ. Муттасил ғўза ва ғўза-беда алмашлаб экишнинг пахта толасини ип йигирувчанлик, микронейр ҳамда пишиб етилганлик даражасига таъсири 61

Ўсимликшунослик

Ismoilov V.I., Latipova Z.A., Tursunov Sh.N. Bahorgi javdarning maqbul ekish muddati va me'yori (Samarqand viloyati sharoitida) 67
Абдуалимов Ш.Х., Сулаймонова Ш.Н. Микро ва макроэлементли лебозол препаратларининг ғўзани ўсиши ва ривожланишига таъсири 72
Алланазаров С.Р. Кўчат қалинлигига боғлиқ ҳолда чилпишнинг битта кўсакдаги пахта вазни ҳамда ғўза ҳосилдорлигига таъсири 77
Каримов Ш.А., Абдуалимов Ш.Ҳ., Исломов Т.Ҳ. Ғўзанинг тезпишарлигини оширишда стимуляторларнинг роли 84
Idrisov X.A., Atabayeva X.N. Mosh (*Rhaseo1is aireis piper*) navlarining o'sishi, rivojlanishi, don hosildorligi va sifatini o'rganish 90
Негматова С.Т., Халиков Б.М., Ёқубов Ғ.Қ., Ортиқова Л.С., Абдуназарова Г.А. Ноанъанавий экин - индигофера 95

Умумий генетика

Наркизилова Г.Н., Мирахмедов М.С. Туричи ғўза дурагайларида 1000 дона чигит вазни белгисининг ирсийланиши ва ўзгарувчанлиги 103

Молекуляр генетика

Kurbonov A.Y., Mamedova F.F., Jumayev S.Sh. *Gossipium* L. turkumining bioxilma-xilligini molekulyar filogeniyasi 107

Мелиорация ва суғорма деҳқончилик

Зиятов М.П., Камилов Б.С., Махсадов Х.Э., Гаппаров С.М., Бобоқандов Ш.Р. Ғўзани турли усулларда суғоришнинг ўтлоқи бўз тупроқлар сув-физик хоссаларига таъсири 113

Агрокимё ва тупроқшунослик

Нурматов Ш.Н., Шадманов Ж.Қ., Бекмуродов Х.Т. Кунгабоқар, мош ва соя экинларини ҳамкорликда парваришланганда шўрланган саҳро қум тупроқлари агрокимёвий хоссаларининг ўзгариши 120

Қисқа ахборот

Табриклаймиз! 125
Р.Назаров, Д.Рашидова. Пахтачиликнинг илмий асослари 126
Р.Назаров. АҚШ пахтачилигидан 128
Р.Назаров, Д.Тунгушова. Сифат – ўзбек пахтасининг асосий белгиси 130
Илмга бағишланган умр 131
Рўзғори саришта, илмда тенгсиз... 133

ЎСИМЛИКШУНОСЛИК

UO'T: 633. 14: 631. 51

BAHORGI JAVDARNING MAQBUL EKISH MUDDATI VA ME'YORI (SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA)

ОПТИМАЛЬНЫЕ СРОКИ И НОРМЫ ПОСЕВА ЯРОВОЙ РЖИ (В УСЛОВИЯХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ)

OPTIMAL TIMES AND NORMAL SOUNDS OF SPRING RYE (IN THE CONDITIONS OF THE SAMARKAND REGION)

Ismoilov Voxid Isropilovich, *tayanch doctorant (PhD)*
Latipova Zuxra Abduhakimovna, *magistr*
Tursunov Shermuxammad Nurmamatovich, *direktor*
***
Исмаилов Вохид Исропилович, *докторант*
Латипова Зухра Абдухакимовна, *магистр*
Турсунов Шермухаммад Нурматович, *директор*
***
Ismoilov Voxid Isropilovich, *(PhD)*
Latipova Zukhra Abduhakimovna, *master*
Tursunov Shermuxammad Nurmamatovich, *director*

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi
***
Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий
Самаркандская научно-опытная станция НИИ зерновых и зернобобовых культур
***
Samarkand state university veterinary medicine, livestock and biotechnologies
Scientific-practical station of Samarkand Institute of Cereal and Legume Crops

Annotatsiya. Samarqand viloyatining o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida bahorgi javdardan mo'l hosil yetishtirish uchun urug'larni qulay ekish muddatlari va ekish me'yorlarini ishlab chiqish talab etiladi. Bahorgi javdardan yuqori va sifatli don hosili olish qishloq xo'jaligidagi dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Ekish uchun maqbul muddatni aniqlash ekinni yetishirishda asosiy omillardan hisoblanib, sifatli don hosili olishda maqbul ekish muddatini belgilash lozim.

Maqolada ilk bor sug'oriladigan yerlarda javdarning Вахшская 116 navini bahorgi yetishtirish muddatida yuqori va sifatli don hosili yetishtirish uchun maqbul ekish muddati hamda me'yorlarini aniqlash natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida javdarning bahorgi ekish muddati va me'yorlarida o'simlik bo'yining baland bo'lganligi aniqlandi. Ekish me'yorlarining oshib borishi o'simlik bo'yining baland bo'lishiga olib kelgan bo'lsa, ekish muddatining kechikishi o'simlik bo'yining pasayishigi olib kelgan.

Ekish muddati 20-23 favral, ekish me'yori 5,5 mln.dona/ga urug' sarflangan variantda o'simlik bo'yi eng yuqori 132,1 sm bo'lib, ekish muddati 10-13 mart, ekish me'yori 3,5 mln.dona/ga urug' sarflangan variantda esa eng past 110,3 sm bo'lganligi qayd etilgan. Mahsuldor poyalar soni variantlar bo'yicha aniqlanib tahlil qilingan. Don hosildorligi barcha takrorlarning har bir variantida aniqlangan. Ekish muddatlarining kechikishi don hosili kamayishiga olib kelgan. Eng yuqori hosil 20-23 fevralda ekilgan muddatda (49,8-55,7 s/ga) olingan. Ekish muddati 10-13 martda ekilgan variantlarda esa eng kam (44,3-50,4 s/ga) xosil olishga erishilgan.

Kalit so'zlar: Javdar, Вахшская 116, don, ekish muddat, me'yor, mln.dona, hosil, mahsuldor, o'simlik bo'yi,

Аннотация. Для получения высоких урожаев яровой ржи в условиях луговых сероземов Самаркандской области, необходимо разработать удобные сроки нормы посадки и посева. Получение высокого и качественного урожая зерна от яровой ржи является одной из важнейших задач сельского хозяйства. Определение оптимальных сроков посева считается одним из основных факторов роста сельскохозяйственных культур, определение оптимального срока посева необходимо для получения качественного урожая зерна.

В статье впервые представлены результаты определения оптимальных сроков посева и норм выращивания для получения высокого и качественного зерна ржи сорта Вахшская 116 при весеннем возделывании на орошаемых землях. В результате исследований установлено, что высота растения ржи была высокой в весенных сроках и нормах посева. Увеличение нормы посева привело к увеличению высоты растений, а поздный посев привел к уменьшению высоты растений.

В варианте где срок посева проведен 20-23 февраля при норме посева 5,5 млн шт/га, высота растения оказалось самой высокой 132,1 см, а при сроках посева 10-13 марта и при норме посева 3,5 млн шт/га рост растения оказались самой низкой 110,3 см. Количество продуктивных стеблей определяли и анализировали по вариантам. Урожайность зерна определяли в каждом варианте во всех повторностях. Задержка сроков посева привела к снижению урожайности зерна. Наибольшая урожайность получена при сроках псева 20-23 февраля (49,8-55,7 ц/га). Наименьшая урожайность (44,3-50,4 т/га) достигнута во вариантах посева 10-13 марта.

Ключевые слова: Рожь, Вахшская 116, зерно, срок посева, стандарт, млн штук, урожай, продуктивность, высота растений.

Annotatsiya. In the conditions of the meadow gray soils of Samarkand region, in order to grow a rich harvest of spring rye, it is necessary to develop the order of optimal norms for planting seeds in a convenient period. Obtaining a high and quality grain yield from spring rye is one of the most important issues in agriculture. Determining the optimal period for planting is considered the main factor in autumn rye breeding, the period of planting is determined by the beginning of the development stages and affects the biochemical processes of the plant and seed. Therefore, it is necessary to determine the optimal, that is, optimal planting period to obtain a high-quality grain harvest.

In the article, for the first time, determination of the optimal planting period and standards for the production of high-quality grain crops in the spring cultivation period of the Vaxshskaya 116 variety of rye on irrigated lands was studied. As a result of the research, it was found that the height of the plant was high even in the period and standards of spring planting of rye. An increase in planting rates resulted in a higher plant height, while a delay in planting resulted in a decrease in plant height. Planting period is February 20-23, planting rate is 5,5 million units/ha, plant height is the highest 132,1 cm, planting period is March 10-13, planting rate is 3,5 million units/ha and the lowest was 110,3 cm. The number of productive stems was determined and analyzed by variants. Grain yield was determined in each variant of all replications. The delay in planting dates has led to a decrease in grain yield. The highest yield was 49,8-55,7 ts/ha during the planting period of February 20-23. The sowing period was 44,3-50,4 t/ha in the varieties planted on March 10-13.

Key words: Rye, Вахшская 116, grain, planting period, standard, million pieces, harvest, productive, plant height.

KIRISH

Bugungi kunda oziq-ovqat muammosi dunyoda global masalalardan biriga aylanib bormoqda. Bunga sabab, birinchidan dunyo aholi sonining ortib borishi bo‘lsa, ikkinchidan tuproq va ob-havo sharoitlarining keskin o‘zgarib borayotganligidadir. Shuningdek, javdar boshqa kuzgi don ekinlaridan farqli o‘laroq, begona o‘tlar bilan raqobatda ulardan ustun kelib, dalani begona o‘tlardan tozalaydi. Javdar bug‘doyga qaraganda tuproqda 1,5-2,0 baravar ko‘p ildiz va ang‘iz qoldiqlarini qoldiradi, sababi uning ildiz sistemasi kuchli rivojlangan bo‘lib, tuproqning chuqur qatlamigacha kirib borish qobiliyatiga ega. Shuning uchun javdardan so‘ng bir qancha (boshoqli don ekinlar, g‘o‘za, dukkakli) ekinlarni ekish va ulardan mo‘l hosil yetishtirish imkoni mavjud.

Javdar boshqa donli ekinlarga nisbatan kasalliklarga kam chalinishi, kuzgi boshoqli ekinlar ichida rekord darajadagi sovuqqa chidamliligi, unumdorligi past, yuqori kislotali, botqog‘, nam bilan kam ta’minlangan va kam sho‘rlangan tuproqlarda ham o‘sa olishi bilan ahamiyatlidir

А.М.Тагаев, С.О.Абдураҳмонов larning tadqiqotlarida, kuzgi javdarning Вахшская 116 navi 4,0 va 5,0 mln. dona/ga unuvchan urug‘ me’yorida hamda 20-sentabr muddatida ekilganda biologik hosildorlik 166,8-205,4 s/ga ni, somonni donga bo‘lgan nisbati 1,36-1,32 ga teng bo‘lganligi shuningdek, ekish muddatining kechikishi bu ko‘rsatkichlarning pasayishiga sabab bo‘lganligi keltirilgan (Тагаев, Абдураҳмонов, 2020).

И.А.Шаганов, И.В. Кочурко, В.В.Карпук, Л.Турсунов larning tadqiqotlarida, kuzgi javdarni Белорус Respublikasining shimoliy mintaqasi qumli tuproqlarida 4,5-5 mln.dona/ga, qumli qumoq va qumloq tuproqlarda 3,5-4 mln.dona/ga, torfli botqoq tuproqlarda esa 3,0-3,5 mln.dona/ga ekish tavsiya etiladi (Шаганов, 2009; Кочурко, 2007; Карпук, 2011; Турсунов, 2019).

М.С.Иванова, Г.Н.Потапова larning ta’kidlashicha, kuzgi boshoqli ekinlarni yaxshi qishlab hamda yuqori don hosilini shakllantirishi uchun Markaziy Ural mintaqasi sharoitida ekishni avgust oyining 3-dekadasida va 6-7 mn.dona/ga me’yorida olib borish maqbul hisoblanadi (Иванова, Потапова, 2017)

Ю.И.Митрафонов, Е.И.Уткина, М.Г.Шамова larning tadqiqotlarida, javdarning Восход 1 va Орловская 9 navlari 4,0 va 6,0 mln/ga dona urug‘ hisobida ekilganda eng yuqori hosildorlikni namoyon qilgan (Митрафонов 2013; Уткина, Шамова, 2015).

С.С.Сокоделов ning Силникова tajriba stansiyasida olib borgan tadqiqotlarida, urug‘larni 4,5 mln.don/ga me’yorida ekish orqali kuzgi javdardan 50 s/ga don hosili olgan (Сокоделов, 1986).

Е.И.Уткина, Л.И.Кедрова, М.Г.Шамова larning tadqiqotlarida keltirilishicha, kuzgi javdarning Флора navi

6,0 mln.dona/ga ekish me'yorida ekilganda hosildorlik eng yuqori 5,8 t/ga ni tashkil qilgan bo'lsa, ekish me'yori 5,0 va 4,0 mln.dona/ga gacha kamaytirish yoki 7,0 mln.dona/ga gacha oshirish kuzgi javdar hosildorligini 2 % gacha kamayishiga olib kelgan (Уткина, Кедрова, Шамова, 2012).

MATERIAL VA USLUBLAR

Tadqiqotlar Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi javdarning Вахшская 116 navini bahorgi ekish muddatlari 20-23 fevral; 01-03 mart va 10-13 martda ekildi. Ekish me'yorlari 3,5; 4,5 va 5,5 mln.dona/ga unuvchan urug' sarflandi. Tajribada mineral o'g'itlardan ammiyakli selitra-NH_4NO_3 (N-33-34,6 %), ammofos-$NH_4H_2PO_4$ (N-11-12 %, P_2O_5-44-46 %) va xlorli kaliy–KCl (K_2O-53,7-60,0%) o'g'itlarini bir xil $N_{180}P_{110}K_{90}$ kg/ga qo'llanildi. Tajriba IV qaytariqda olib borildi.

Tajriba dalasi tuproqlarining agrokimyoviy tavsifi quyidagicha: tuproq haydov (0-30 sm) va haydov osti (30-60 sm) qatlamlarida chirindi miqdori 1,20; 0,74 %, yalpi azot 0,080; 0,068; fosfor 0,190; 0,093 va kaliy 2,1; 1,6 % gacha ekanligi aniqlandi. Tuproq muhit reaksiyasi haydov qatlamida pH 7,2 tashkil etdi

Tadqiqotlar barcha kuzatuvlar tuproq va o'simlik namunalari tahlillari va hisob kitoblar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2014) "Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах" (1963), "Практикум по агрохимии" (2001) kabi ilmiy ko'llanmalar asosida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida bahorgi javdarning Вахшская 116 navini ekish muddati va me'yorlarini o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi hamda sifatigi ta'sirini aniqlashdan iborat.

NATIJA VA MUNOZARALAR

Tadqiqotlarimizda bahorgi javdar urug'larining dala unuvchanligiga ekish muddatlari va me'yorlarining ta'sirini tahlil qilib chiqdik. Bunga ko'ra ekish me'yorlarini oshib borishi urug'larning dala unuvchanligini yuqori bo'lishiga olib keldi.

Erta 20-23 mart ekish muddatida eng yuqori urug'larning dala unuvchanligi ekish me'yori 5,5 mln.dona/ga bo'lgan variantda 90,6 % bo'lgan bo'lsa, ekish muddati kechki 10-13 martda xuddi shu variantda 2,9 % urug'larning dala unuvchaligi yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Bahorgi javdar urug'larining dala unuvchanligi ekish muddati 01-03 mart, ekish me'yori 5,5 mln.dona/ga bo'lgan variantda eng yuqori 95,8 % bo'lganligi kuzatildi.


Donli ekinlarning hosildorligi shakllanishida asosiy poya va fotosintetik yuza ko'rsatgichlari asosiy vazifani bajaradi. O'simlik poyasining shakllanishi biomassa to'planishi va ekinlarning oziqlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Ekish muddatlari 20-23 fevraldan 01-03 martgacha kechikishi natijasida o'simliklarning bo'yi pasayishi, ekish me'yorlarining oshib borishi esa mos ravishda o'simlik bo'yining baland bo'lishiga olib keldi. O'simlik bo'yi eng past ko'rsatkich barcha ekish muddatlarida ekish me'yori 3,5 mln.dona/ga urug' sarflangan variantda mos ravishda 118,7 sm, 112,8 sm va 110,3 sm bo'lganligi aniqlandi. O'simlik bo'yining eng baland bo'lishi, ekish muddati 20-23 fevral, ekish me'yori 5,5 mln.dona/ga urug' sarflangan variantda 132,1 sm bo'lganligi kuzatildi.

Bahorgi javdar bo'yi 10-13 martda eukilgan muddatda 110,3-117,9 sm gacha bo'ldi. Barcha ekish muddatlarining 5,5 mln.dona/ga urug' sarflangan variantlarda 117,9-132,1 sm gacha bo'lganligi aniqlandi. 01-03 martda ekilgan muddatda, 3,5 mln.dona/ga urug' sarflangan variantga nisbatan, 5,5 mln.dona/ga urug' sarflangan variantda o'simlik bo'yi 13,6 sm baland bo'lganligi qayd etildi. 20-23 fevral ekish muddatining 3,5 mln.dona/ga urug' sarflangan variantiga nisbatan, 10-13 martda 3,5 mln.dona/ga urug' sarflangan variantda o'simlik bo'yi 8,4 sm past bo'ldi.

Javdarga azot, fosfor va kaliy o'g'itlarini berilishi uning bo'yiga va yotib qolishiga chidamliligini oshiradi. Ayniqsa javdarni kaliy bilan ta'minlanishi o'simlikni baquvvat bo'lib shakllanishini ta'minlab, uni yotib qolishga chidamliligini oshiradi. Bunda o'simlikni tuplanishi sust kechdi, o'simlik poyasida mexanik to'qimalarni rivojlanishi susayganligi natijasida ularni yotib qolishga chidamlilik xususiyati pasaydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, nazorat variantda o'simliklar zamburug' kasalliklarga ko'proq chalinganligi kuzatildi.

1-rasm. Bahorgi javdar bo'yi va mahsuldor poyalar soniga ekish muddati hamda me'yorlarining ta'siri



Javdarning Вахшская 116 navida bo'yi nisbatan past bo'lishiga qaramay, erta (20-23.02) ekilgan muddatda ekish me'yorlari oshib borishi bilan o'simlik yotib qolishi yaqqol ko'rinib, yotib qolishga chidamlilik 4-4,5 balni tashkil etdi.

Ekish muddatlariga bog'liq ravishda ekish me'yorini oshib borish bilan o'simliklarni yotib qolishini ko'rsatdi. Ayniqsa bu yotib qolish jarayoni erta (20-23.02) ekish muddatida ko'proq kuzatildi.

Donli ekinlarning hosildorligi shakllanishi uning kuzgi va bahorgi tuplanish fazasi o'tishi hamda hosil bo'lgan poyalardan mahsuldor poyalar hosil bo'lish darajasi bilan uzviy bog'liq.

Javdarning sug‘oriladigan o‘tloqi bo‘z tuproqlar sharoitida o‘stirishda yetishtirish texnologiyasidan bo‘lgan ekish muddatlari va me’yorlarini o‘simlikning 1 m^2 dagi boshoqli poyalari soniga ta’siri yuzasidan olingan ma’lumotlar 2-rasmda keltirilgan.


Mahsuldor poyalar soni o‘simliklar hosili shakllanishining eng muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha Vaxshskaya 116 navida 20-23 fevralda ekilgan 3,5 mln.dona/ga urug‘ sarflangan variantda 1 m^2 dagi mahsuldor poyalar soni 324,6 dona bo‘lib, bu ko‘rsatkich ekish me’yori 4,5 mln. dona/ga urug‘ sarflangan variantda 425,7 dona, 5,5 mln. dona/ga urug‘ sarflangan variantda esa 512,7 donani tashkil etdi.

Ekish muddati 01-03 martda ekilgan va gektariga 3,5 mln.dona/ga urug‘ sarflangan variantda 4,5 mln. dona/ga urug‘ sarflangan variantga nisbatan 1 m^2 dagi mahsuldor poyalar soni 102,9 donaga, 5,5 mln.dona/ga urug‘ sarflangan variantda esa 173,3 donaga kam bo‘lishi aniqlandi. Ekish muddatlarining kechikishi bilan 1 m^2 dagi mahsuldor poyalar soni kamayib borganligi kuzatildi.

Javdarning don hosildorligi navning biologik xususiyatlari, bahorgi ekish muddatlari va ekish me’yorlariga qarab o‘zgardi. Don hosildorligi eng kam variantlar bu ekish me’yori 3,5 mln.dona/ga urug‘ sarflanganda bo‘lib, 20-23 fevral ekish muddatida 49,8 s/ga 01-03 mart ekish muddatida 47,9 s/ga, 10-13 mat ekish muddatida esa 44,3 s/ga bo‘lishi kuzatildi (2-rasm).

Ekish me’yorlarini oshirish erta 20-23 fevralda ekilgan muddatda javdarning don hosildorligi kamayganligi qayd etildi. Javdar urug‘lari zich ekilgan variantlarda (5,5 mln.dona/ga) o‘simlik poyalari nimjon va uzun bo‘lib, noqulay ob–havo oqibatida yotib qolishi sababli don hosili kamayishi kuzatildi. Ushbu holat ekish muddatlari 20-23 fevral va 01-03 martda ekish me’yori 5,5 mln.dona/ga urug‘ sarflangan variantlarda qayd etildi.



2-rasm. Bahorgi javdar don hosildorligiga ekish muddati va me’yorlarining ta’siri

Javdarning ekish muddati kechikishi bilan don hosili kamayib, 10-13 martda ekilgan variantlarda, 01-03 mart ekish muddatiga nisbatan gektaridan 1,9; 2,4 va 1,8 s/ga kam hosil olindi. Kechki 10-13 martda ekilgan variantlarda hosildorligini kamayishi javdar urug‘larining unuvchanligi kechikishi va tuplanish fazasida havo haroratini ko‘tarilishi oqibatda tinim davrini qisqa bo‘lishi natijasida sodir bo‘ldi.

XULOSA.

Samarqand viloyatining sug‘oriladigan o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida javdarning Вахшская 116 navi uchun maqbul bahorgi ekish muddati fevral oyining oxirgi o‘n kunligi ekanligi isbotlandi. Ushbu ekish muddatida javdardan yuqori hosil olishda ekish me’yori 4,5 mln.dona/ga urug‘ sarflansa don hosildorligi oshishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Иванова М.С., Потапова Г.Н. Озимые зерновые культуры в условиях Свердловской области: сроки посева и урожайность, // «АгроЖизнь» №7 2017 – г. – С. 54.

2. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в полевых хлопковых районах. - Тошкент.: 1963. – 440 с

3. Кочурко В.И., Пугач А.А. “Технология возделывания озимой ржи” Барановиччи. 2007. – Б. 3-21.

4. Карпук В.В., Сидорова С.Г. “Растениводство” Минск. БГУ. 2011. – Б. 148-158.

5. Митрафонов Ю.И. // «Аграрная наука Евро-Северо-Востока» – № 5 (36), 2013. – Б. 28– 32.

6. Практикум по агрохимии: Учеб. пособие. – 2-е изд., перераб. и доп. / под ред. академика РАСХН В.Г. Минеева. – М.: Изд. МГУ, 2001. – 689 с

7. Сокоделов С.С. Влияние норм высева на урожайность и качество зерна озимой пшеницы. //Зерновые, зернобобовые и крупяные культуры. /РЖ. ВНИИТЭИ Агропром, 1986.-№ 6. –С.10.

8. Тагаев А.М., Абдураҳмонов С.А. Жавдар ўсимлигинин ўсиши, ривожланиши ва дон ҳосилдорлигига уруғини экиш муддатлари ва меъёрларини таъсири. Аграр фан назарияси ва амалиётидаги долзарб муаммолар ва уларнинг ечимлари халқаро конференциясининг материаллар тўплами 2020. 14-15 декабр. – Б. 908-914.

9. Турусов В.И., Новичихин А.М., Гаврилова С.А., Чайкин В.В., Тороп А.А., Лаптиев А.Б. “Агротехнология возделывания озимой ржи в условиях воронежской области” Каменная степь. 2019. – Б. -27

10. Шаганов И.А. “Практические рекомендации по освоению интенсивной технологии возделывания озимых зерновых культур” – Минск. «Равноденствие» 2009. – Б. 165.

11. Уткина Е.И., Кедрова Л.И., Шляхтина Е.А., Шамова М.Г., Парфенова Е.С. // «Аграрная наука Евро-Северо-Востока» – № 5 (48), 2015 г. – Б.34-38.

12. Уткина, Е.И., ва б. Оптимизация технологических приемов производства зерна озимой ржи // Достижения науки и техники АПК. – 2012. – №6. – С. 38-41.

Mualliflar haqida malumotlar:

Ismoilov Voxid Isropilovich, O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand shahar, M.Ulug‘bek ko‘chasi 77-uy 1) e-mail: 7257150@mail.ru. ORCID ID https://orcid.org/ 0000-0002-5975-8196

Latipova Zuxra Abduhakimovna, O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand shahar, M.Ulug‘bek ko‘chasi 77-uy 1) e-mail: ZUHRA13984@mail.ru. ORCID ID https://orcid.org/ 0009-0008-8077-5418

Tursunov Shermuxammad Nurmamatovich, O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand shahar, M.Ulug‘bek ko‘chasi 77-uy 1) e-mail: shermuhammadt7@gmail.com. ORCID ID https://orcid.org/ 0000-0002-3079-8979

Поступило в редакцию 6.11.2023